

BO'LAJAK SHIFOKORNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAQSADI

Akramova Ziyoda Shukurullayevna

Alfraganus Universiteti farmasevtika va
kimyo kafedrasи o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10612902>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak shifokorning kasbiy kompetentligi xususida mulohazalar bayon qilingan. Tibbiyat hodimlari bemorga ham tibbiy ham ijtimoiy-psixologik jihatdan zarur tibbiy yordamni ko'rsatishi zarur. Respublikamizda hukumat tomonidan bu soha bo'yicha rivojlanish istiqbollari yaratilganligi ham maqolada ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ruh va ong, shifokorlik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik, emotsionallik, moslashuvchanlik.

THE PURPOSE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN FORMING THE FUTURE PHYSICIAN

Abstract. In this article, comments on the professional competence of the future doctor are presented. It is necessary for the medical staff to provide the necessary medical and social-psychological assistance to the patient. The article also states that the government has created development prospects in this field in our republic.

Key words: spirit and mind, medical position, social activity, emotionality, adaptability.

ЦЕЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ БУДУЩЕГО ВРАЧА

Аннотация. В данной статье содержатся комментарии о профессиональной компетентности будущего врача. Необходимо, чтобы медицинский персонал оказал пациенту необходимую медицинскую и социально-психологическую помощь. В статье также говорится, что правительство создало перспективы развития этой сферы в нашей республике.

Ключевые слова: дух и разум, врачебная позиция, социальная активность, эмоциональность, адаптивность.

Bo'lajak shifokorni huquqiy tarbiyalash, demokratik qonunchilikka rioya qilish davlatimiz siyosatidagi ustuvor yo'naliishlardan biri bo'lib, davlat va jamiyat hayotida qonunchilik hamda huquqiy tartibni mustahkamlash masalalari mamlakatimizda qonunchilik asoslarini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Yosh kadrlar ijtimoiy faolligining shakllanishida eng muhim vositalardan biri demokratik huquq sanaladi. Demokratik jamiyatni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va yangi avlodni shakllantirish masalasida respublikamiz hukumati davlat va jamiyat hayotining huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida ahamiyat berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolar singari yoshlarga ham keng huquq berilganligi uqtirilgan. Shulardan biri O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosiga qobiliyati va yo'naliishiga qarab bilim olishi ta'minlanganligi ko'rsatilgan. Bu huquq o'quvchilarga har xil shakllarda davlatimiz tomonidan kafolatlangan. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buning negizida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni inson qalbi va ongini egallash uchun, turli mafkuralar

o‘rtasidagi kurash asrida turli xil yot g‘oyalar va tajovuzlardan asrab qolish maqsadi ham mujassam. Zotan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlayotganidek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masalaga haqiqatdan ham hayot-mamot masalasi sifatida qarab kelingan. O‘sib kelayotgan yosh avlod bugun jamiyatimizning shunchaki bir a’zosi bo‘lsa, ertaga uning bunyodkori bo‘ladi.”¹ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida ta’kidlanganidek, “Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq”.² Demak, yoshlar tarbiyasiga yetarli darajada e’tibor berish orqali biz kelajagimiz uchun mustahkam tamal toshini qo‘yan bo‘lamiz.

Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom, intellektual salohiyatli, ma’nан barkamol ulg‘ayishi uchun, shuningdek yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag‘batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohatlar natijasini tibbiyot sohasida ham kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947 sonli Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarorlari³ tadqiqot ishimizga dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oliy ta’lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri – bu bo‘lajak mutaxassislarining, bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir.

Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbari va Vazirlar mahkamasi tomonidan oxirgi yillarda chiqarilayotgan bir qator qaror va farmonlarida tibbiyot shifokorlarining kasbiy kompetentligi, salohiyati, kasbiy mahorati juda yuqori darajada bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

“Kompetentlik” tushunchasi shifokorning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, shifokorning kasbiy faoliyatiga doir zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi tushuniladi. Shu jumladan, sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanishi, eng avval ushbu jarayonni tashkil etuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi tibbiyot hodimlarining dunyoqarashi va

¹ O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonuni 2016-yil 14-sentyabr, O‘RQ-406сон Toshkent sh.

² Нурали Нишоналиевич Сиддиков (2022). СОФЛИКНИ САҚЛАШ ТИЗИМИДА “ИЖТИМОЙ ШЕРИКЧИЛИК ТҮҒРИСИДА”ГИ ҚОНУНИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (2), 91-94.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF- 4947- sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami - № (766) – 70- modda, -T.:Adolat, 2017. -B.38.

tafakkuridagi o‘zgarishlarga ya’ni ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog‘liqdir. Tibbiyot shifokorlarining kasbiy mahorati va kompetenligining o‘zaro aloqadorlik masalasi bir qator pedagogik-psixologik adabiyotlarda ochib berilgan. Unda kasbiy mahoratni tug‘ma xususiyatlar va fazilatlar bilan shartli belgilanmasligi ta’kidlangan.⁴

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida shifokorning tibbiyotga oid bilim, ko‘nikmalarini psixologiya sohasi bilan birlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiy faoliyatda tibbiyot xodimlari va bemorlar o‘rtasida nafaqat bemorning psixologik, balki jismoniy holatini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan alohida munosabatlar shakllanadi. Shuning uchun tibbiyot hodimi va bemor o‘rtasidagi muloqot psixologiyasini o‘rganish hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shifokor kasbi ma’lum psixologik xususiyatlarga ega. Uning oldida har doim tibbiyot hodimi va bemor o‘rtasidagi muloqot psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil vazifalar mavjud. Bemor muammolarni hal qilish uchun asosiy muloqot qobiliyatları va ko‘nikmalariga ega bo‘lish muhimdir. Ular, birinchi navbatda, bemor bilan suhbatlashish, uning ichki dunyosiga kirib borish, bemorning individual psixologik xususiyatlarini yetarli darajada tushunish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Har bir tibbiyot hodimi har daqiqada duch keladigan ushbu va boshqa ko‘plab qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot psixologiyasining asosiy xususiyatidir. Ular o‘rtasidagi muloqotlarning maqsadi muloqot ishtirokchilaridan biri tomonidan boshqasiga nisbatan ko‘rsatiladigan tibbiy yordamdir. Shifokor bilan yaxshi muloqotda bo‘lgan holda, qo‘llaniladigan davolash yaxshi ta’sirga ega, yon ta’siri va asoratlari ancha kam. Bemor bilan muomalaga kirishishning o‘ziga yarasha shartlari bor, albatta. Shifokor bemor xastaligining taxminiy diagnozini, shaxsini, kasbini, ijtimoiy sharoitini, saviyasini, dunyoqarashini, bilim darajasini, tashqi psixik belgilarini o‘rganganidan so‘ng, o‘zini ham bu muloqotga ruhan tayyorlaganidan keyingina u bilan muloqot qilish uchun ma’naviy haqqi paydo bo‘ladi. Bemor va shifokor muloqoti (shartli ravishda) ikki doirada kechadi: Birinchi, tashqi doira zanjirida yuqorida aytilgandek, shifokorning bemor bilan muloqotga tayyorlanish bosqichidagi amallar kiradi. Ikkinci, ichki doirani esa bemor shaxsini, uning kasallik sabablarini begilovchi dalillar zanjiri tashkil etadi. Birinchi doira sohibining mahorat darajasi qay darajada yuksakligi uning ikkinchi doiraga “ko‘prik” sola olish san’ati bilan belgilanadi. Aynan shu “ko‘prik” solinganidan so‘ng bemor shifokorga ishonch va umid ko‘zi bilan qaray boshlaydi.

Bo‘lajak shifokor kasbiy faoliyatidagi eng muhim vazifalar quydagilardan iboradir:

- Ioda, jasorat, chidamlilik;
- Bemorlarga har tomonlama yordam ko‘rsatish va ularning azoblarini o‘zining emotsiyonalligi bilan yengillashtirish;
- O‘z bemoriga nisbatan insoniylik;
- Yuksak psixologik mahorat;
- Kasallik yuzasidan yetuk bilim.⁵

⁴ D.A.Sobirova. Tibbiyot xodimlari social intelekti ko‘rsatkichlari namoyon etilishining gender xususiyatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar 234 May 6 <https://tma.uz/> International Scientific and Practical Conference “Zamonaviy ta’lim”, ilmiy-amaliy ommabop jurnali. Toshkent. 2019. №4. - B. 30- 35.

⁵ D.A.Sobirova. Social intelekt konsepsiyasining yaratilishi va nazariy asoslari. “Zamonaviy ta’lim”, ilmiy-amaliy ommabop jurnali. Toshkent. 2019. №2. - B. 9-18 betlar.

Bo‘lajak hamshira bemorning axloqiy va qonuniy huquqlari bo‘yicha malakali bo‘lishi kerak. Bemorning yoshi yoki jinsidan, kasallikning tabiat, irqiy yoki milliy kelib chiqishi, diniy yoki siyosiy e’tiqodi, ijtimoiy yoki moddiy ahvoli yoki, boshqa farqlaridan qat’iy nazar ularga malakali tibbiy yordam ko’rsatishga doimo tayyor bo‘lishi kerak. Demak, rivojlanayotgan jamiyatimizda bo‘lajak hamshira shaxsiga yuqori talablar qo‘yilar ekan, unda psixologik yetuklik, kasbiy samaradorlik va ijtimoiy talabchanlikka erishishini ta’minlovchi sotsial komponentlikni taqozo etadi. Har bir bo‘lajak shifokor o‘z ish vazifalarini bajarishda kasbiy mahoratida ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishiga oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Mavjud majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun beriladigan topshirig‘iga oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Shifokorlar har doim tibbiy retseptlarga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari va bemorlarni davolash jarayonini diqqat bilan kuzatishlari kerak.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, har qanday mojaroli vaziyatlarni oldindan oldini olish uchun kasbiy kompetentligidan foydalana olishi kerak, chunki hamshiralar bemorlar uchun psixolog va davolash jarayonining tashkilotchilaridir. Shifokorlar eng muhimi, ta’lim muassasalarida ham, ish joyida ham olingan bilim va ko‘nikmalari, ijtimoiy salohiyati, kasbiy mahorati, kasbiy holati, emotsionalligi, ijtimoiy moslashuvchanligi, tibbiy etika kabi kasbiy kompetentlik bilimlariga ega ekan, o‘z yaqinlarining salomatlik holatidagi arzimagan o‘zgarishlarga tezda javob qaytarishi va shu orqali turli kasalliklar rivojlanishining oldini olishga xizmat qilishlari kerak.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonuni 2016-yil 14-sentyabr, O‘RQ-406сон Toshkent sh.
2. Нурали Нишоналиевич Сиддиқов (2022). СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИДА “ИЖТИМОЙ ШЕРИКЧИЛИК ТҮФРИСИДА”ГИ ҚОНУНИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (2), 91-94.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami - № (766) – 70-modda, -T.:Adolat, 2017. -B.38.
4. D.A.Sobirova. Tibbiyot xodimlari social intelekti ko’rsatkichlari namoyon etilishining gender xususiyatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar 234 May 6 https://tma.uz/ International Scientific and Practical Conference “Zamonaviy ta’lim”, ilmiy-amaliy ommabop журнали. Toshkent. 2019. №4. - B. 30- 35.
5. D.A.Sobirova. Social intelekt konsepsiyasining yaratilishi va nazariy asoslari. “Zamonaviy ta’lim”, ilmiy-amaliy ommabop журнали. Toshkent. 2019. №2. - B. 9-18 betlar.